

TIJORAT BANKLARIDA ICHKI AUDITINI XALQARO AUDIT STANDARTLARI TALABLARI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH TADQIQI

Boymatova Chinora Ilhomovna

O‘zbekiston Respublikasi Bank- moliya akademiyasi magistri.

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar jarayonining ustuvor yo‘nalishlaridan biri — samarasiz faoliyat yuritayotgan xo‘jalik yurituvchi subyektlarni davlat tasarrufidan chiqarish, ularni xususiy lashtirish hamda davlat tasarrufida bo‘lgan, lekin investitsiyalar va zamonaviy texnologiyalarga muhtoj yirik korxonalami aksiyadorlik jamiyatlariga (korporatsiyalarga) aylantirishdir. Iqtisodiyotning erkin bozor munosabatlariga o‘tishi uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar natijasida mulkchilikning turli shakllari vujudga kelib, xo‘jalik yurituvchi subyektlar o‘rtasidagi xo‘jalik aloqalari xalqaro miqyosda kengaymoqda, tadbirkorlik faoliyatining barcha qatlamlarida moliyaviy va xo‘jalik faoliyati natijalaridan manfaatdorlik darajasi tubdan o‘zgarmoqda.

Iqtisodiyotning hozirgi sharoitida aksiyadorlik jamiyatları va mas’uliyati cheklangan jamiyatlar faoliyatining yanada ravnaq topishi hamda ularning xalqaro miqyosdagi aloqalari ko‘laming kengayishi va rivojlanib borishi nafaqat son, balki sifat jihatidan yuqori saviyadagi audit xizmatlariga bo‘lgan talabni oshirmoqda.

Ichki auditning asosiy maqsadi - mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan korxonalarda buxgalteriya hisobining to‘g‘ri yuritilishini ta’minlash, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha hisob-kitoblar to‘g‘ri yuritilishini tekshirish, mulkdorlar manfaatini himoya qilish va boshqaruv organlari tomonidan ularning manfaatlariga zid harakatlar qilinishining oldini olish, bunday holatlar aniqlangan taqdirda bu haqda mulkdorlarni xabardor etishdan iborat. Ichki audit xizmati korxona xodimlarining o‘z vazifalarini yanada samaraliroq bajarishlariga va shu bilan birga korxonaning ichki imkoniyatlarini aniqlash hamda ulardan to‘liqroq foydalanishga yordam beradi.

Ichki audit xizmati o‘z faoliyatida vazirlik va idora boshqa tarkibiy bo‘limmalaridan mustaqil hisoblanadi va bevosita vazirlik va idora rahbariga bo‘ysunadi hamda unga hisobdordir;

Ichki audit tadbirlari ichki audit yillik rejasi asosida ichki audit obektida o‘tkaziladi;

Budget to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari buzilgani to‘g‘risida ma’lumotlar kelib tushganda hamda fuqarolar ishtirokidagi audit tizimi orqali ichki audit tadbiri o‘tkaziladigan ichki audit obyektlari aniqlanganda, ichki audit tadbirlari vazirlik va idora rahbari qarori asosida o‘tkaziladi;

Ichki audit tadbiri ichki audit tadbirini o‘tkazish guruhi yoki ichki audit xizmati xodimi tomonidan o‘tkaziladi;

Ichki audit xizmati ichki audit obekti rahbariga auditdan 5 kun oldin ichki audit tadbiri davomida bajariladigan ishlar to‘g‘risida qisqacha ma’lumot, ichki audit tadbirini o‘tkazishda taqdim etilishi lozim bo‘lgan ma’lumotlar va hujjatlar ro‘yxati hamda ularni taqdim etish muddatlari, ichki audit tadbirini o‘tkazish guruhi a’zolari ro‘yxatini ilova qilgan holda xabarnoma yuboradi.

Ichki audit xizmati jamiyatning ijroiya organi, filiallari va vakolatxonalarini tomonidan qonun hujjatlariga, jamiyat Ustaviga va boshqa hujjatlarga rioya etilishini, buxgakteriya hisobida va moliyaviy hisobotlarda ma’lumotlarning to‘liq hamda ishonchli tarzda aks ettirilishi ta’minlanishini, ho‘jalik operatsiyalarini amalga oshirishning belgilangan qoidalari va tartib-taomillariga rioya etilishini, aktivlarning saqlanishini, shuningdek jamiyatni boshqarish yuzasidan qonun hujjatlarida belgilangan talablarga rioya etilishini tekshirish hamda monitoring olib borish orqali jamiyatning ijroiya organi, filiallari va vakolatxonalarini ishini nazorat qiladi hamda baholaydi.

Ichki audit xizmati o‘z faoliyatini, agar qonunda o‘zgacha qoyida nazarda tutilmagan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahqamasi tomonidan belgilanadigan tartibga muvofiq hamda jamiyat Ustavi va Ichki audit xizmati to‘g‘risidagi nizomi asosida amalga oshiradi.

Ichki audit xizmati kuzatuv kengashi tomonidan saylanadi.

Ichki audit xizmati vakolat doirasi qonunchilik va Ichki audit xizmati to‘g‘risidagi nizomida belgilanadi.

Audit standartlari - bu umumiy materiallar bo‘lib, ular auditorlarga tugallangan moliyaviy hisobotning auditini o‘tkazishda ko‘maklashadi. Standartlarda mustaqillik va mas’uliyatlilik kabi kasbiy sifat belgilari, auditorlik xulosalari va tasdiqnomalariga qo‘yiladigan talablar keltirilgan.

To‘la boshqaruvchi materiallar qatoriga Amerika xolis buxgalterlar instituti tomonidan 1947-yilda tayyorlangan o‘nta umumiy qabul qilingan standartlar kiradi.

Umumiy standartlar

1. Tekshiruv maxsus texnik tayyorgarlik va auditorlik kasbiy sifatiga ega shaxs yoki shaxslar tomonidan bajarilishi kerak.
2. Topshiriq bilan bog‘liq bo‘lgan har qanday savolda auditor yoki auditorlar mustaqilligini saqlab qolishi kerak.
3. Tekshiruv o‘tkazish va xulosa berishda kasbiy sinchkovlikni namoyon etishi zarur.

Obyektda ishslash standartlari:

1. Ish puxta rejalashtirilishi va yordamchilar mavjud bo‘lsa, ular ustidan to‘la nazorat o‘rnatilishi kerak.
2. Tekshirish hajmini belgilashda, vaqt chegaralarini aniqlashda va audit rejasini tuzish uchun auditor ichki nazorat tizimini to‘la o‘rganib chiqishi zarur. Auditdan o‘tkazilayotgan moliyaviy hisobot bo‘yicha fikr berish uchun tekshirish, kuzatish, so‘roqlar o‘tkazish yo‘li bilan hujjatlar to‘plab, zaruriy asos yig‘ish kerak.

Xulosalar standarti.

1. Xulosada moliyaviy hisobot umumiy qabul qilingan buxgalteriya prinsiplariga amal qilingan holda tuzilganligi to‘g‘risidagi ma’lumot bo‘lishi kerak.
2. Xulosada bu prinsiplardan chetga chiqish sharoitlari belgilanishi va tartibi aniqlanishi kerak.

3. Xulosada moliyaviy hisobotdagi ma'lumotni xatolardan xoli deb qarash, agar xatolar mavjud bo'lsa, ularga umumiy sharh berish kerak.

Xulosa qilib aytganda, moliyaviy hisobot bo'yicha to'la fikrlar majmuidan iborat bo'lishi yoki umuman fikr bildirish mumkin emasligini ma'lum qilish kerak. Agar fikr bildirish mumkin bo'lmasa, uning sabablari keltirilishi shart. Shuningdek, auditorlik tekshiruvchi xarakterini ham ifodalab, auditorlar javobgarligi darajasi haqida ham ma'lumotlami berishi zarur. Xalqaro amaliyot tajribalari va Amerika Qo'shma Shtatlari xolis buxgalterlar instituti tomonidan tashkil etilgan sifat nazorati standartlari qo'mitasi ishlab chiqqan sifat nazorati elementlariga asoslangan holda namunaviy sifat nazorati standartlarini keltirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Исламов И.Н. Узок муддатли активларнинг бухгалтерия хисоби ва аудити методологиясини такомиллаштириш масалалари. И.ф.д. илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация иши. Тошкент 2009 й

2. Пулатов М. Номоддий активларнинг хдсоби ва аудитини такомиллаштириш масалалари. И.ф.н. илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация иши. Тошкент 2006 й.

3. М.Б.Ухажова/ Справедливая стоимость и ее использование в бухгалтерском учете: состояние и перспективы/автореферат,

4. Ширинов, У. А. (2021). Improvement of methodology of auditorial assessment of segmentary accounting and reporting reality in committees providing communication services. Экономика и социум, (5-2), 642-647.